

**AXBOROT TEXNOLOGIYALARI VA SUN'IY  
INTELLEKT FALSAFASI**

**Odilov Shohruxbek Oxunjon o'g'li**

*Toshkent Davlat Transport Universiteti talabasi*

**Ramatov Jumaniyoz Sultanovich**

*Ilmiy rahbar: Toshkent Davlat Transport Universiteti f.f.d., professor*

**MAQOLA  
MALUMOTI**

**ANNOTATSIYA:**

**MAQOLA TARIXI:**

*Received: 18.07.2024*

*Revised: 19.07.2024*

*Accepted: 20.07.2024*

**KALIT SO'ZLAR:**

*Axborot  
texnologiyalari,  
mashina ongi, axborot  
xavfsizligi, "Xitoy  
xonasi" tajribasi,  
eksponent tasavvur,  
Kurzveilning qonuni,  
singulyarlik, ong  
falsafasi..*

*Ushbu maqola axborot texnologiyalari (AT) va sun'iy intellekt (SI) sohalarining rivojlanishining falsafiy, ijtimoiy va etik ta'sirlarini tahlil qiladi. Maqolada ayniqsa, sun'iy intellekt va mashina ongining tabiati, inson va mashina o'rtasidagi tafovutlar, va bu texnologiyalarning jamiyatga ta'siri muhokama qilinadi. Luciano Floridi va John Searle kabi olimlarning fikrlari asosida axborotning mohiyati, mashina ongining imkoniyatlari va cheklovlari, shuningdek, sun'iy intellektning etik xavflari tahlil qilinadi. Shuningdek, axborot texnologiyalari va sun'iy intellektning kelajakdagi ijtimoiy va iqtisodiy oqibatlarini ayniqsa, sun'iy intellektning etik va falsafiy jihatlarini o'rganishga qaratilgan bo'lib, ilgari surilgan g'oyalar va ularning ilmiy va amaliy ta'sirlarini yoritib berilgan.*

**Kirish.** Axborot texnologiyalari (AT) va sun'iy intellekt (SI) sohalarining rivojlanishi zamonaviy dunyoning barcha sohalariga, jumladan jamiyat, iqtisodiyot, ishlab chiqarish va ilm-fan olamiga jiddiy ta'sir ko'rsatmoqda. Bu texnologiyalar insoniyatni yangi bosqichga olib chiqishga qodir bo'lib, yangi bilim va imkoniyatlarni taqdim etmoqda. Axborot texnologiyalari, ayniqsa, ma'lumotlarni saqlash, uzatish va qayta ishlash imkoniyatlarini oshirib, jahon miqyosidagi o'zgarishlarni tezlashtirmoqda. Sun'iy intellekt esa, inson aqlini takrorlash va undan yuqori darajada ishlash imkoniyatini yaratish orqali, mashinalarni o'rganish, qaror qabul qilish va muloqot qilishda yangi imkoniyatlar ochmoqda. Sun'iy intellekt va axborot texnologiyalarining kelajagi haqida qarashlar turlicha bo'lsa-da, ular o'rtasidagi muhokama va ularning rivojlanishi haqida to'liq tasavvurga ega bo'lish hozirgi kunda har bir mutaxassis uchun muhim vazifa hisoblanadi. Biroq, bu texnologiyalarning rivojlanishi faqat ilmiy va texnikaviy yutuqlarni emas, balki insoniyatning axloqiy, falsafiy va ijtimoiy kelajagini ham shakllantirmoqda.

Axborot texnologiyalari va sun'iy intellektning rivojlanishi falsafiy savollarni tug'diradi. Ular orasida eng muhimlari: ongning tabiatini tushunish, kognitsiyani qanday aniqlash mumkinligi va mashinalarning ong va aqlga ega bo'lishi mumkinmi degan savollarni o'z ichiga oladi. Shuningdek, sun'iy intellektning rivojlanishi insonni qanday qilib tushunishi, o'zgartirishi va umuman odamlarning ish joylarida va kundalik hayotda qanday o'zgarishlarga olib kelishi mumkinligi haqida muhokamalar mavjud.

**Adabiyotlar tahlili va metodologiya.** Ushbu maqolada axborot texnologiyalari va sun'iy intellekt sohasining falsafiy, ijtimoiy va etik ta'sirlarini tahlil qilish uchun bir qator olim va tadqiqotchilarning ilmiy metodlaridan foydalanilgan. Biz ushbu bo'limda ularning qo'llagan metodlari bilan tanishib chiqamiz. Luciano Floridi axborot falsafasi sohasida o'zining muhim ishlari bilan tanilgan olimlardan biridir. Luciano Floridining "axborot falsafasi" haqidagi ishlari bu sohaning asosiy yo'nalishlaridan biridir. Floridi axborotning mohiyatini tushunishga intilib, uni ong va shaxsiyat tushunchalari bilan bog'lab ko'rgan. Uning fikriga ko'ra, axborot insoniyat uchun yangi ontologik tushunchalar to'plamini yaratadi va shu asosda axborot texnologiyalari bilan ishlashimizni falsafiy nuqtai nazardan qayta ko'rib chiqishimiz kerak. Floridi axborotni nafaqat ma'lumotlar to'plami sifatida, balki mavjudlikni tashkil etuvchi asosiy element sifatida qaraydi.

John Searlening mashina ongiga oid fikrlari esa sun'iy intellektning falsafiy muammolarini tahlil qilishda muhim rol o'ynaydi [1, 25]. Searle "Xitoy xonasi" tajribasi asosida sun'iy intellektning fikrlash qobiliyati mavjud emas degan xulosaga keladi. Tajriba shundan iboratki, bir kishi Xitoy tilini bilmaydi va unga Xitoy tilida savollar beriladi, lekin unga Xitoy tilidagi savollarni javoblash uchun maxsus ko'rsatmalar va kitob beriladi. Shunday qilib, u kitob yordamida Xitoy tilidagi savollarga to'g'ri javob beradi, lekin aslida bu kishi Xitoy tilini tushunmaydi. Searle bu tajribani mashinalar misolida keltiradi: mashina to'g'ri javoblarni berishi mumkin, lekin uning aslida bu javoblarni tushunishi yoki ongiga ega bo'lishi mumkin emas degan xulosaga keladi. Biroq, ba'zi olimlar (masalan, Ray Kurzweil)[2,60] sun'iy intellekt va mashina ongining tabiati bo'yicha boshqacha qarashlarga ega bo'lib, ular mashinalarning o'zida ongning shakllanishini mumkin deb hisoblashadi.

Sun'iy intellekt va axborot texnologiyalarining rivojlanishi albatta ko'plab etik muammolarni keltirib chiqarmoqda. Nik Bostrom va Wendell Wallach kabi olimlar sun'iy intellektning rivojlanishidagi etik xavflarni ko'rsatganlar. Ular sun'iy intellektni nazorat qilish, uning qarorlarini qanday qilib adolatli qilish va mashinalarning insonlarga qarshi ishlashini oldini olish kabi masalalarni muhokama qiladilar. Bostromning "Superintelligence" asarida superintellektning xavfli natijalari va uning global miqyosda qanday ta'sirlar ko'rsatishi haqida yozilgan. Bostrom sun'iy intellektning kelajagi haqida turli farazlarni o'rganadi va texnologiyaning qanday rivojlanishiga qarab uning ijtimoiy va axloqiy oqibatlarini bashorat qiladi. Sun'iy intellektning kelajagi haqida bir nechta farazlar mavjud. Ray Kurzveil kabi futuristlar sun'iy intellektni insonning intellektual imkoniyatlarini oshiruvchi vosita sifatida tasvirlaydi. Ular mashinalar bilan hamkorlikda

insoniyat yangi bosqichga ko'tariladi deb hisoblaydilar. Biroq, boshqa olimlar sun'iy intellektning noxush oqibatlariga, ya'ni insoniyatni "qoldirib ketish" yoki boshqaruvni yo'qotishga olib kelish ehtimollariga e'tibor qaratadilar.

**Natijalar.** Ushbu tadqiqot davomida sun'iy intellekt va axborot texnologiyalarining rivojlanishining kognitiv ilm va psixologiya bilan qanday bog'liqligini o'rganish maqsad qilingan. Tadqiqotda mashinalarning ongga ega bo'lishi va axborotning mavjudlikni tashkil etuvchi asosiy element sifatida roli haqida asosiy tahlillar amalga oshirildi. John Searlning "Xitoy xonasi" tajribasi orqali mashinalarning ongga ega bo'lishi mumkin emasligi tasdiqlandi. Bu tajriba mashinalar tashqi ravishda ongga o'xshash xatti-harakatlarni amalga oshirsa ham, ular ichki tushunishga ega bo'lmasligini ko'rsatdi. Shunga qaramay, Ray Kurzveilning "singulyarlik" g'oyasi va mashinalarning inson aqlini yuqoriga ko'tarishi haqidagi farazlari, sun'iy intellektning imkoniyatlari va uning kognitiv jarayonlarga ta'sirini ko'rsatmoqda. Kurzveil innovatsion texnologiyalar va kelajakdagi yuksak rivojlanish haqida yozgan kitoblari bilan e'tibor qozongan. Uning asosiy g'oyalari texnologik yuksalishning tezligi, "eksponent tasavvur" tamoyili va sun'iy intellektning rivojlanishi bilan bog'liqdir. Kurzveil texnologiyaning eksponent o'sish (tezlashtirilgan rivojlanish) tamoyilini ilgari suradi. Unga ko'ra, texnologiyalar yildan-yilga tezroq rivojlanib boradi, shunday qilib kelajakda hayot tarzining va insoniyatning imkoniyatlarining sezilarli darajada o'zgarishini kutish mumkin. Kurzveilning bu konsepsiyasi "Kurzveilning qonuni" (Law of Accelerating Returns) deb ataladi. Bu qonun texnologik yangiliklarning tezligi vaqt o'tishi bilan ortib borishini ta'kidlaydi. Bundan tashqari, Nik Bostrom va Wendell Wallachning etik xavflariga oid tahlillar, sun'iy intellektning qarorlari va uning insoniyatga ta'siri haqida muhim savollarni keltirib chiqardi. U shuningdek, superintellektning insoniyatga xavf solmasligi uchun qanday ehtiyot choralari ko'rish zarurligini ta'kidlaydi.

**Muhokama.** Axborot texnologiyalari va sun'iy intellektning rivojlanishi insoniyatni yangi o'zgarishlarga va savollarga olib keladi. Bu texnologiyalar nafaqat ilmiy va texnikaviy yutuqlarni, balki insoniyatning axloqiy, falsafiy va ijtimoiy kelajagini ham shakllantiradi. Shuning uchun, biz sun'iy intellekt va axborot texnologiyalarining rivojlanishini nafaqat texnik, balki falsafiy nuqtai nazardan ham tahlil qilishimiz kerak. Sun'iy intellekt va axborot texnologiyalarining rivojlanishi bugungi kunda ilm-fan, iqtisodiyot, jamiyat va falsafa sohalarida keng ko'lamli o'zgarishlarni keltirib chiqarmoqda. Bu texnologiyalar faqat ilmiy va texnikaviy yutuqlarni emas, balki insoniyatning ijtimoiy va axloqiy kelajagini ham shakllantiradi. Axborot texnologiyalari va sun'iy intellektning kelajagi kognitiv ilm va psixologiya bilan chambarchas bog'liq. Sun'iy intellektning rivojlanishi inson miyasi va ongining tabiatini yanada chuqurroq tushunishga imkoniyat yaratadi. Natijada ilmiy va falsafiy sohalarida yangi paradigmaning shakllanishiga olib keladi, bu esa ilm-fan va falsafa o'rtasidagi aloqalarni kuchaytiradi. Shunday qilib sun'iy intellekt va axborot texnologiyalarining rivojlanishi ilm-fan, ishlab chiqarish, falsafa, ijtimoiy va etik masalalarni o'rganish zaruriyatini keltiradi. Ray Kurzveil, John Searle, Luciano Floridi, Nik

=====

Bostrom va Wendell Wallach kabi olimlar turli nuqtai nazarlarda texnologiyalarning imkoniyatlari va cheklovlarini o'rganishadi. Kurzveilning "Singulyarlik" g'oyasi texnologik yuksalishning eksponent o'sishini bashorat qilsa, Searle sun'iy intellektning haqiqiy ongni idrok etish imkoniyatini inkor etadi. Kurzveilning fikriga ko'ra, texnologiyalar nafaqat bilimlarni kengaytiradi, balki insonning intellektual imkoniyatlarini ham oshiradi. Bu o'z navbatida texnologiya va biologiyaning integratsiyasini ta'kidlab, insoniyatni yangi bosqichga olib chiqishga imkon beradi. Biroq, John Searle sun'iy intellektning onnga ega bo'lishi mumkin emasligini isbotlashga harakat qiladi. Bu fikr, sun'iy intellektning cheklovlari va mashinalarning haqiqiy tushuncha yoki ongni idrok eta olish imkoniyatlariga oid muhim savollarni keltirib chiqaradi. Searlening bu yondashuvi, sun'iy intellektning ongni tushunishdagi qiyinchiliklarini va uning inson aqli bilan solishtirishda yuzaga keladigan chegaralarni ko'rsatadi. Floridi axborotni ko'rib chiqishda u faqat bilim va ma'lumotlarni o'zlashtirish bilan cheklanmaydi, balki bu jarayonlar odamlar va ularning qarorlarini shakllantirishda qanday rol o'ynashi haqida ham so'z yuritadi. Floridi axborotni mavjudlikni tashkil etuvchi asosiy element sifatida ko'rish kerakligini ta'kidlaydi. Bostrom esa sun'iy intellektning ijtimoiy va etik xavflarini muhokama qiladi. Wallach shuningdek, sun'iy intellektning qarorlarini nazorat qilish va uning ijtimoiy oqibatlarini boshqarish zarurligini ko'rsatadi. Tadqiqotda sun'iy intellektning etik masalalari, uning qarorlarining adolatligi va ijtimoiy oqibatlari hamda xavf-xatarlarni nazorat qilish zarurati ta'kidlandi. Bostromning fikriga ko'ra, agar sun'iy intellekt inson aqlidan oshib ketadigan darajaga yetadigan bo'lsa, u jamiyat uchun katta xavf tug'dirishi mumkin. Ayniqsa, agar bunday superintellektni boshqarishning nazorati bo'lmasa, bu insoniyatni hukmronlikdan chiqarishi yoki hatto yo'q qilishi mumkin. Umuman olganda tadqiqot sun'iy intellektning rivojlanishining nafaqat ilmiy va texnikaviy, balki ijtimoiy va etik jihatlariga ham katta ta'sir qilishini ko'rsatdi. Shuningdek, maqolada texnologiyalarning kelajagi insoniyat uchun yangi imkoniyatlar yaratish bilan birga, xavf-xatarlar ham keltirishi mumkinligini aniqladik.

Axborot texnologiyalari va sun'iy intellektning rivojlanishi insoniyatni yangi o'zgarishlarga va savollarga olib keladi. Bu texnologiyalar nafaqat ilmiy va texnikaviy yutuqlarni, balki insoniyatning axloqiy, falsafiy va ijtimoiy kelajagini ham shakllantiradi. Shuning uchun, biz sun'iy intellekt va axborot texnologiyalarining rivojlanishini nafaqat texnik, balki falsafiy nuqtai nazardan ham tahlil qilishi miz kerak.

Ray Kurzveilning fikriga ko'ra, sun'iy intellektning kelajagi eksponent tarzda rivojlanadi va texnologik yuksalishning tezligi oshib boradi. U "Singulyarlik" kontseptsiyasini ishlab chiqib, sun'iy intellektning tez orada inson aqlidan yuqori bo'lishi mumkinligini taxmin qiladi. Endi biz "Singulyarlik" tushunchasiga batafsilroq to'xtaladigan bo'lsak. Singulyarlik tushunchasi deganga bu vaqt nuqtasi bo'lib, undan keyin texnologik yuksalish insoniyatning tushunishidan tashqariga chiqadi. Kurzveil bu fenomenni "Kurzveilning qonuni" deb atagan, bu qonun texnologiyalarning rivojlanishi, har bir yangi innovatsiyaning avvalgisidan tezroq va kuchliroq bo'lishini ta'kidlaydi. Uning fikriga ko'ra, bu holat mashinalar va sun'iy

intellektning o'zini o'zi takomillashtirishi, inson intellektidan ham o'zib ketishi bilan tugaydi. Luciano Floridi esa axborot texnologiyalarining mohiyatini yangi ontologik nuqtai nazardan o'rganadi. Floridi axborotni nafaqat ma'lumotlar to'plami sifatida, balki mavjudlikni tashkil etuvchi asosiy element sifatida qaraydi. Uning fikriga ko'ra, axborotning rivojlanishi va axborot texnologiyalarining tarixi yangi tushunchalar yaratadi, bu esa insoniyatning ongi va shaxsiyati bilan bog'liq bo'lgan masalalarni chuqurroq o'rganishga imkon beradi. Floridi axborotni ko'rib chiqishda, u faqat bilim va ma'lumotlarni o'zlashtirish bilan cheklanmaydi, balki bu jarayonlar odamlar va ularning qarorlarini shakllantirishda qanday rol o'ynashi haqida ham so'z yuritadi.

**Xulosa.** Xulosa qilib aytganda, axborot texnologiyalari va sun'iy intellektning rivojlanishi nafaqat ilmiy yutuqlarni, balki insoniyatning ijtimoiy, axloqiy va falsafiy kelajagini ham shakllantiradi. Bu texnologiyalar o'zida katta imkoniyatlarni saqlagan bo'lsa-da, ular bilan birga xavf-xatarlar va noxush oqibatlar ham yuzaga kelishi mumkin. Shuning uchun, sun'iy intellektni rivojlantirishda etik va falsafiy masalalarni chuqur o'rganish, xavflarni oldini olish va texnologiyalarni boshqarish bo'yicha ehtiyotkorlik bilan yondashish zarur. Bu jarayon insoniyatning kelajagini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi va ilm-fan, texnologiya va falsafa o'rtasidagi aloqalarni chuqurlashtiradi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar.**

1. John Searle – *Minds, Brains, and Programs* (Behavioral and Brain Sciences, 1980)
2. Kurzweil, R. (2005). *The Singularity is Near: When Humans Transcend Biology*. Viking Press.
3. Nick Bostrom – *Superintelligence: Paths, Dangers, Strategies* (Oxford University Press, 2014)
4. Wendell Wallach, Jason Borenstein – *Science, Ethics, and the Challenge of Artificial Intelligence* (Cambridge Handbook of Artificial Intelligence, 2014)
5. Wallach, W., & Allen, C. (2009). *Moral Machines: Teaching Robots Right From Wrong*. Oxford University Press.
6. Ramatov J., Umarova R. Evolution of railway construction development in Uzbekistan: past and prospects // aIp Conference proceedings 2432, 030011 (2022); <https://doi.org/10.1063/5.0090845> No access Jun 16, 2022.
7. Ramatov J.S, Umarova R.Sh.. Constructive and optimal solutions for the formation of a stable ecological situation in the aral Sea region of Uzbekistan// aIp Conference proceedings 2432, 030113 (2022); <https://doi.org/10.1063/5.0091203>.